



UO‘K: 811.511.1’36+81’367

**GAPDA UYUSHIQ BO‘LAKLARNING O‘RNI VA AHAMIYATI
(Ozod Sharafiddinov asarlari misolida)****МЕСТО И ЗНАЧЕНИЕ СЛОЖНЫХ ЧАСТИЦ В ПРЕДЛОЖЕНИИ
(На примере произведений Азода Шарафиддинова)****THE PLACE AND SIGNIFICANCE OF COMPLEX PARTICLES IN THE SENTENCE
(On the example of the works of Azod Sharafiddinov)****Askarova Umidaxon Maxamadjon qizi** 
O‘zbekiston Milliy universiteti o‘qituvchisi**Annotatsiya**

Bugungi kunda lingvistika sohasida tilning fonologik, leksik va semantik qatlamlari shu bilan bir qatorda sintaktik birliklarning semantikasini aniqlash borasida ham juda ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Dunyo tilshunosligida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan sintaktik sathda tahlil nazariyasiga turli xil yondashuvlar mavjud. Shunday ekan, biz ham ushbu maqolada mohir so‘z arbobi, munaqqid Ozod Sharafiddinov asarlarida uyushiq bo‘laklarda ishlatiladigan bog‘lovchilarning yakka holda qo‘llanuvchi bog‘lovchilar imkoniyatlaridan, takrorlanuvchi bog‘lovchilarning ifoda imkoniyatlaridan ilmiy uslubga xos matn yaratishda hamda bog‘lovchili, bog‘lovchisiz hamda ayiruvchi bog‘lovchilardan qay tarzda foydalangani kabi masalalarni sintaktik jihatdan tahlil qilishga uringanmiz.

Abstract

Today, in the field of linguistics, many scientific studies are conducted to determine the phonological, lexical and semantic layers of the language, as well as the semantics of syntactic units. There are different approaches to the theory of analysis at the syntactic level, which is important in world linguistics. Therefore, in this article, we will also discuss the possibilities of singular connectives, the expressive possibilities of repetitive connectives in the works of the skilled wordsmith, critic Ozod Sharafiddinov, used in cohesive clauses, in creating a text typical of the scientific style, and, we have tried to syntactically analyze issues such as how it uses conjunctions without conjunctions and subtractive conjunctions.

Аннотация

Сегодня в области языкознания проводится множество научных исследований по определению фонологического, лексического и семантического слоев языка, а также семантики синтаксических единиц. Существуют разные подходы к теории анализа на синтаксическом уровне, что важно в мировой лингвистике. Поэтому в этой статье мы также обсудим возможности единственных связей, выразительные возможности повторяющихся связей в произведениях искусного словесника, критика Озода Шарафиддинова, используемых в связных предложениях, при создании текста, свойственного научному стилю, и, мы попытались синтаксически проанализировать такие вопросы, как использование союзов без союзов и вычитательных союзов.

Kalit so‘zlar: Ozod Sharafiddinov, uyushiq bo‘lak, sintaksis, bog‘lovchilar, ilmiy uslub, lingvistik tahlil, stilistik vosita, sintaktik tenglik, juftlash usuli, emotsional ifoda, adabiy tanqid, publitsistik til, sintaktik qurilish, sintaktik hodisa

Ключевые слова: Озод Шарафиддинов, однородные члены предложения, синтаксис, союзы, научный стиль, лингвистический анализ, стилистическое средство, синтаксическое равенство, способ парного перечисления, эмоциональное выражение, литературная критика, публицистический язык, синтаксическая структура, синтаксическое явление

Key words: Ozod Sharafiddinov, coordinated sentence elements, syntax, conjunctions, academic style, linguistic analysis, stylistic device, syntactic equivalence, pairing method, emotional expression, literary criticism, journalistic language, syntactic structure, syntactic phenomenon

KIRISH

Ozod Sharafiddinov – zamonaviy o‘zbek tanqidchiligining yorqin namoyandasi, atoqli jamoat arbobi, mohir so‘z san‘atkori edi. Olimning serqirra ijodi ijtimoiy-falsafiy, lingvistik, lingvoslubiy nuqtayi nazardan o‘rganilishga loyiq mohiyati bilan alohida ajralib turadi. Olimning o‘tkir falsafiy qiymatga ega va tanqidchilikning ulkan namunasi bo‘lgan asarlari, badiiy tarjimalari, poetika va til haqidagi sermazmun maqolalarini o‘qigan kitobxon hayratga tushadi. Ozod

TILSHUNOSLIK

Sharafiddinovning qalamida ona tilimiz xazinasidagi har bir soʻz yangidan-yangi imkoniyatlarini namoyon qiladi, beqiyos falsafiy mazmun va mohiyat kasb etadi. Filologiya fanlari doktori, professor B.Karimov taʼkidlab oʻtganidek: “Ozod Sharafiddinov oʻzbek tilining ham jonkuyari edi. Fikrini ogʻzaki tilda ravon bayon qilganidek, yozma tili, uslubi ham, yozgan barcha asarlarining tili ham nihoyatda jozibali edi. Til toʻgʻrisida qator maxsus maqolalar yozgan ustozning ayni fazilati boshqa koʻpgina olimlarga oʻrnak boʻlarlikdir” [Chin maʼnodagi fidoyi. Ozod Sharafiddinov zamondoshlari xotirasida: 218]

ASOSIY QISM

Avvalo, uyushiq boʻlakning nima ekanligini bir yodga olib olamiz. Gapda bir xil soʻroqqa javob boʻlib, bir xil sintaktik vazifani bajarib, teng bogʻlovchilar yoki sanash ohangi bilan bogʻlangan gap boʻlaklari uyushiq boʻlaklar hisoblanadi. Bunday boʻlaklar gapda birdan ortiq holda qator kelishi mumkin va bu gaplar uyushiq boʻlakli gaplar hisoblanadi. Masalan, “*Toʻgʻri, Abdulla Qahhor hayotning ijobiy tomonlarini oʻzida mujassamlashtirgan Ahmad polvon, Maston, Asror bobo, Dehqonboy, Hafiza, Saida kabi obrazlarni ham yaratgan*”. [Birinchi moʻjiza: 277] Bu gapda *Ahmad polvon, Maston, Asror bobo, Dehqonboy, Hafiza, Saida* soʻzlari uyushib kelgan. Ular bir xil soʻroqqa javob boʻlib, bir xil sintaktik vazifani bajarmoqda shu bilan bir qatorda, sanash ohangi va teng bogʻlovchi yordamida birikkan.

Gapning barcha boʻlaklari uyushiq boʻla oladi: uyushiq egalar, uyushiq kesimlar, uyushiq aniqlovchilar, uyushiq toʻldiruvchilar, uyushiq hollar. Uyushiq boʻlaklar qismlari, odatda, bir xil grammatik shaklda boʻladi.

Gapning uyushiq boʻlaklari sintaktik jihatdan teng aloqada boʻladi. Hozirgi oʻzbek adabiy tilida gapning uyushiq boʻlaklari oʻzaro ikki xil usul bilan:

- 1) bogʻlovchisiz – biriktiruvchi pauza va sanash intonatsiyasi orqali;
- 2) biriktiruvchi pauza sanash intonatsiyasi hamda teng bogʻlovchilar (koʻpincha biriktiruvchilar) yordami bilan bogʻlanadi.

Gapning uyushiq boʻlaklarini bogʻlash uchun odatda teng, yaʼni biriktiruvchi, zidlovchi, ayiruvchi bogʻlovchilar qoʻllaniladi. Bular mazmunan uygʻun boʻlgan ikki boʻlakni bir-biriga bogʻlaydi. Masalan: *Shoir milliylikka intilar ekan, xalq yumoridan ham dadil va keng foydalanadi*. [Birinchi moʻjiza: 223]

Hozirgi adabiy tilda gapning uyushiq boʻlaklari yozuvchilarning asarlarida stilistik vosita sifatida keng qoʻllanilib kelmoqda. Buning asosiy sababi shundaki, u fikrni aniq va toʻliq hamda obrazli ifodalaydi, shuningdek, nutqqa ifodalilik bilan bir qatorda emotsionallik, koʻtarinkilik berish uchun ham xizmat qiladi.

Predmetlarni juftlab sanashni koʻrsatgan uyushiq boʻlaklarda har bir juft murakkab bir butun sanaladi. Oʻsha juft boʻlaklarning ichki ayrimliklari juftlar orasidagi ayrimlikka qaraganda kuchsiz boʻladi. Bunda har bir uyushiq boʻlak oʻz ichida yana uyushiq boʻlak hosil qiladi. Bunday holatlarda yuqorida koʻrsatilgan affikslar koʻpincha shu har bir juftning keyingi elementiga qoʻshiladi: *Uning koʻp asarlari mohir koʻz bogʻlovchining sirliligi qutisini eslatadi: kichkina qutidan kaptar ham, gazmol ham, quyon ham, soyabon ham, yana allanimalar chiqib kelaveradi*. [Birinchi moʻjiza: 290] *Poema qahramonlari – ingichka qosh, boʻtakoʻz, boʻydoor, maslahatgoʻy, gʻamxoʻr va tuygʻun Nazmixon; notobday soʻlgʻin, soddagoʻy Oltinoy; shoʻx, hazilkash Dilbar; jiddiy, oʻychan, lekin ishda chayir Gulshan; yapasqiroq, yoʻgʻon gavgavli, ishda olov Oyjamol*. [Birinchi moʻjiza: 152] *Oʻzbekistonning bugungi jamoliga bir nazar tashlang: uning navqiron shaharlarini, yashnagan qishloqlarini, bepayon paxtazorlarini, soʻlim bogʻlarini, kumush tasmadek kanallarini, ulkan zavodlarini; qudratli nurxonalarini koʻz oldingizga keltiring*. [Birinchi moʻjiza: 87]

Biriktiruvchi bogʻlovchilardan va har bir uyushiq boʻlak tarkibida bir marta yoki bir necha marta qoʻllana oladi. Bir marta qoʻllanganda, uyushiq boʻlaklar oʻzaro bir-biri bilan juftlanib aloqaga kirishmaydi. Bunday holda va bogʻlovchisi ikki yoki bir necha komponentlar tarkibida keladi. Uyushiq boʻlaklar bir necha boʻlganda, biriktiruvchi – bogʻlovchi keyingi juft orasida kelib, sanalishning tugallanganini koʻrsatadi: *Bu — yozuvchining sinfiy pozitsiyasi aniqligidan, hayotga hujumkor va gʻolib mehnatkash xalq nuqtai nazaridan izchil qaraganidan*. [Birinchi moʻjiza: 243]

Uyushiq boʻlaklar komponenti ikkita boʻlsa, u holda ularning orasida va ishlatiladi: *Maqsadsiz, shunchaki asar yozish uchun yozadigan avtorning ahvoli ham ana shunday kulgili va*

ayanchli. [Birinci mo'jiza: 258] *Abdulla Qahhor ijodidagi zamonaviylik va g'oyaviylik haqqoniylikdan tug'iladi*. [Birinci mo'jiza: 260]

Uyushiq bo'laklar tarkibi ikkidan ortiq komponentdan iborat bo'lganda, bog'lovchi oxirgi ikki bo'lakni bog'laydi. Bunday holda uyushiq bo'lak komponentlari sonini orttirish, sanashni davom ettirish mumkin emas: *G'afur G'ulom poeziyasi janrlar e'tibori bilan g'oyat xilma-xil va rang-barang bo'lganidek, uning prozaik merosi ham boy va ko'pqirralidir*. [Birinci mo'jiza: 236]

Bu misolda O.Sharafiddinov *xilma-xil* hamda *rang-barang* (o'zaro ma'nodosh) birliklarini juftlab uyushtirish orqali (Hatto, har ikki birlikni ham ana shu kuchaytirilgan shaklda qo'llagani holda) shuningdek, *boy* va *ko'pqirralidir* birliklarini ham (bu ikkala so'z ham funksional ma'nodoshlikni hosil qiladi). [Shamsiddinov H. Fil. fan. nom. avtoreferat: 14-18] Shu tarzda juftlash orqali, uyushtirish tufayli o'zining yozuvchi asari tiliga, yozuvchining so'z qo'llash mahoratiga, ayniqsa, yozuvchining janrlarga e'tibor berganligiga, nasriy asarlarining tili boyligi, g'oyaning ko'pqirraligiga alohida e'tibor bilan yondashganligiga o'z diqqatini qaratadi, ya'ni yozuvchining bu boradagi mahoratini bo'rttirib ko'rsatadi. Bunga uyushiq bo'laklardan, o'z ilmiy nutqida, mahorat bilan foydalanganligini ko'ramiz.

Yuqorida keltirilgan juda ko'p uyushiq bo'lakli jumllarida ilmiy uslubga xos bu xususiyatdan keng foydalangan tanqidchi O.Sharafiddinov o'z fikrlarini lo'nda, aniq, tushunarli, ayniqsa, ta'sirli ifodalashga erishganligini kuzatamiz.

Uyushiq bo'laklarni juftlab qo'llashning ilmiy uslubda turli ta'sirchan ko'rinishlarini topib qo'llagan, o'rinli ishlatgan O.Sharafiddinov yuqoridagi gapda yanada, o'z fikrlarini ta'sirchan ifodalashga erishgan.

Ya'ni oldingi juftliklarda bittadan so'z o'rtasida va bog'lovchisini ishlatgan bo'lsa, keyingi juftliklarda oldin ikkita so'zni ohang bilan bog'lab turib, uchinchi so'zni va bog'lovchisi orqali bog'laydi (*Abdulla To'qay, Hodi Toqtash va Olimjon Ibrohimov*). Bu bilan ilmiy nutqni badiiylashtirishga erishgan. Ana shu narsa O.Sharafiddinovning gap sintaksisiga nihoyatda e'tibor bilan qarashini ko'rsatib turadi.

Ba'zan *-u, -yu* yuklamalari biriktiruvchi bog'lovchi funksiyasini bajarib keladi: *Shuning uchun yozuvchi bu epizodlarning hammasidan kechadi-yu, Obidjon uchun eng tabiiy va zarur bo'lgan o'rinlarnigina qoldiradi*. [Birinci mo'jiza: 291] Bular ham va bog'lovchi kabi ikkita uyushiq bo'lak orasida yoki uyushiq bo'laklar tarkibi ikkidan ortiq komponentdan iborat bo'lganda, oxirgi bo'lakdan oldin keladi. Bundan tashqari juft bo'laklar orasida ham qo'llanilishi mumkin: *G'ofur G'ulomning xalq ijodidan bahramand bo'lishi haqida gapirar ekanmiz, uning latifa va rivoyatlarni qayta ishlab, ularga sayqal berib, yangi umr ato qilgani-yu hikoya va qissalarida folklor asarlarining syujetidan, badiiy pryomlaridan erkin foydalanganini nazarda tutayotganimiz yo'q*. [Birinci mo'jiza: 208]

-yu yuklamasi unli tovushlardan so'ng qo'llanilsa, *-u* yuklamasi esa undosh tovushlardan so'ng qo'llanadi: *Biroq Mamaniyoz o'g'liga yer bilan birga yana boshqa narsani – o'z yerlarining chetlariga tikan bosishni, yon qo'shnilar, batraklarga qo'shilmaslikni, najotni faqat domla-imomu Sharifboydan izlashni ham vasiyat qilgan*. [Birinci mo'jiza: 234]

-u, -yu elementlari haqida ham ikki xil qarashlarni ko'rish mumkin. Masalan, A.G'ulomov va M.Asqarovalar bu elementlarni zidlovchi vazifasini bajaradi, deb zidlovchilar guruhiga kiritishgan bo'lsa, V.Reshetov, S.Ibrohimov, U.Tursunov, F.Kamolovlar esa ushbu yuklamalarni biriktiruvchi bog'lovchi funksiyasini bajaradi, deb bog'lovchilar qatorida keltirib o'tishgan.

Grammatik ma'no ifodalovchi element har bir uyushiq bo'lakda takrorlanib, uyushiq bo'laklar shakl jihatidan tenglikka ega bo'ladi. Bunda har birining mustaqilligi, ayrimligi chizib, ta'kid bilan ko'rsatiladi: *G'ofur G'ulom bahramand bo'lgan yana bir daryo – xalq ijodidir. Xalq ijodida hamisha xalq donoligi ham, xalqning hayot tarzi ham, xalq qalbi ham mukammal ifodalangan bo'ladi*. [Birinci mo'jiza: 207]

Ham yuklamasi bog'lovchisi vazifasida kelib, u uyushiq bo'laklarni ham bog'laydi: *"Sharq klassik adabiyotining namoyandalari tajribasi ham, rus va jahon shoirlarining praktikasi ham, xalq og'zaki ijodi ham G'ofur G'ulom uchun, birinchi navbatda, ijodning eng asosiy masalalariga to'g'ri va mukammal javob topishga va bu javoblarni e'tiqod darajasiga ko'tarishga yordam berdi"*. [Birinci mo'jiza: 209-210] holda qo'llanadi.

TILSHUNOSLIK

Shuningdek, uyushiq bo'laklarning har biri mustaqil ekanligini aniq ko'rsatish, ularning ma'nosini kuchli ifodalash va u bo'laklarning ta'kidli ifodasi uchun *ham* bog'lovchisi har bir bo'lakdan so'ng takrorlanib keladi. Ularning o'zaro bog'lanishida asosiy rolni intonatsiya o'ynaydi. Ushbu holatda ularda affiksatsiya to'liq bo'ladi: *Ikki yoshning sevgisi ham, yangi qurilayotgan to'g'on ham, ona muhabbati ham va yana ko'p narsalar she'riyatning mag'zi bo'lishi kerak.* [Birinchi mo'jiza: 168]

Bundan tashqari, agar uyushiq bo'laklarning bog'lanishidagi bunday munosabatni yanada kuchaytirish zarur bo'lganda, *ham* bog'lovchisi uyushuvchi har bir bo'lakning oldidan keladi: *Kolxozlarga uyushib, sotsialistik mehnat protsessida ham o'lkaning, ham o'zining qiyofasini o'zgartirayotgan dehqon, yaratuvchilik mehnati bilan kelajakka poydevor qo'yayotgan ishchi, eskilik sarqitlariga qarshi dadil isyon ko'targan, o'z insoniy qadr-qimmatining yuksakligi uchun kurashuvchi yoshlar, yangi hayot uchun olib borilgan revolyutsion janglarda fidokorlik ko'rsatgan bahodirlar poemalarning bosh qahramoni bo'lib qoldi.* [Birinchi mo'jiza: 126]

Aslida *ham* yuklamasi uyushiq bo'laklarni bog'laganda ilmiy uslubda, uning (gapning) ta'sirchanligini oshirish uchun tanqidchi olim *ham* bog'lovchisiga ma'nodosh, funksiyadosh bo'lgan *-u, -yu, va* bog'lovchilaridan ham foydalanadi. Ayniqsa, *ham* yuklamasiga ma'nodosh va vazifadosh bo'lgan *-u, -yu* yuklamalaridan bog'lovchi sifatida juda to'g'ri foydalanadi.

Uyushiq bo'laklarni bog'lashda yana *hamda* bog'lovchisi ham ishlatilishi mumkin. *Hamda* bog'lovchisi vazifasi jihatdan *ham* bog'lovchisi bilan bir xildek.

Hamda va *ham* bog'lovchilarining bir-biridan farqi shundaki, *hamda* bog'lovchisi uyushiq bo'laklar tarkibida takror holda qo'llanmaydi. Ozod Sharafiddinov asarlari va adabiy-tanqidiy maqolalarida *hamda* bog'lovchisining juda kam qo'llanganini ko'ramiz.

Bilan yordamchisi aslida ko'makchi bo'lib, ba'zan bog'lovchi o'rnida ham qo'llanadi. *Bilan* bog'lovchisining asosiy xususiyati shundan iboratki, u bir uyushiq bo'lak tarkibida necha yerda kelmasin, faqat ikki bo'lak o'rtasida qo'llanadi hamda o'zining asl ma'nosi birgalikni ham saqlaydi. Misol uchun: *Biz adabiyotimiz ravnaqini haqli ravishda revolyutsiya samaralari bilan, sotsialistik tuzumning hayotbaxsh kuchi bilan izohlaymiz va uning boyligidan, rang-barangligidan faxrlanamiz.* [Birinchi mo'jiza: 88]

Uyushiq bo'laklarda yuqoridagi bog'lovchilardan tashqari *na* inkor bog'lovchisi ham vazifasiga ko'ra biriktiruvchilar qatoriga kiradi: *Ular na xalqni, na ijodkorlarni mensimay ular bilan mutlaqo hisoblashmay hukmronlik qilganlar.* [Ijodni anglash baxti: 57]

Zidlovchi bog'lovchilar sintaktik jihatdan teng huquqli, lekin mazmun jihatidan bir-biriga qarama-qarshi bo'laklarni bog'lash uchun xizmat qiladi. Yana ham soddaroq qilib aytadigan bo'lsak, bo'laklarning biri gap inkorini, ikkinchisi tasdig'ini ko'rsatadi.

Zidlovchilar (*ammo, lekin, biroq*) uyushiq bo'laklarni bog'lash vazifasida biriktiruvchilarga qaraganda kamroq qo'llaniladi.

Yo, yoki, yoxud, ba'zan-ba'zan, dam-dam, bir-bir, goh-goh, goho-goho ayiruvchilar hisoblanadi.

Bulardan *yo, yoki, yoxud* takrorlangan holda ham, yolg'iz holda ham qo'llaniladi. *Yo* bilan *yoki* ayiruvchilari ikki bo'lak orasida kelganda, ular orasidagi pauza yo'qday tuyuladi. Agarda bir necha bo'lakning eng keyingisidan oldin kelsa, shu bog'lovchidan bo'laklar bir to'da kabi ifodalanadi, keyingi bo'lak alohida ajralib talaffuz qilinadi: *Uning novatorligi poeziyamizda yangi estetik prinsiplarni barqaror qilishida yo poeziya bilan hayot o'rtasidagi aloqani tubdan yaxshilaganidagina emas, shoirning adabiyotimizga, she'riyatimizga olib kirgan yangi qahramonida ham yaqqol ko'rinadi.* [Birinchi mo'jiza: 266]

Ba'zan-ba'zan, dam-dam, bir-bir, goh-goh, goho-goho ayiruvchilari faqat uyushiq bo'laklar oldida takrorlanib qo'llanadi: *Ammo "Chirog" poemasining ayrim o'rinlari ritorik xarakterga ega, ba'zan vazn talabi bilan so'zlar buzib ishlatiladi, ba'zan esa, siyqa poetik obrazlar qo'llaniladi.* [Birinchi mo'jiza: 320] *Shoir zamonamiz qahramonlarini, ularning ma'naviy qiyofasini, ichki dunyosini goh jiddiy, goh yumor bilan chizadi.* [Birinchi mo'jiza: 384]

ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbek adabiy tili taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan munaqqid ijodi, xususan, publitsistika tili adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan ma'lum darajada o'rganilgan bo'lib, hali yetarli darajada lingvistik tadqiq manbai bo'lmagan. [O.Sharafiddinov publitsistikasi tili va uslubi: 4-5]

Ammo olimning publitsistikasi tili H.Hamrayeva tomonidan monografik planda tadqiq etilgan. Aynan O.Sharafiddinov asarlaridagi uyushiq bo'laklar U.Askarovaning "Ozod Sharafiddinov asarlarining sintaktik xususiyatlari" mavzusidagi magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya ishida chuqur tahlil qilgan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Yuqorida keltirib o'tilgan misollardan ko'rinib turibdiki, uyushiq bo'laklar fikrni aniq, to'liq, obrazli ifodalashning eng muvofiq vositalaridandir. Ular ifodani ixcham tuzish, unda his-hayajon va emotsional holatlarni ham ancha to'la aks ettirish, stilistik ravonlik va ixchamlik singari xususiyatlari bilan tilimizda katta ahamiyatga ega bo'lgan grammatik kategoriyalardan hisoblanadi. Shuning uchun ham bu sintaktik hodisa ifoda vositasi sifatida nutqimizning deyarli hamma tipida, ayniqsa, yozma nutq turlarida, badiiy adabiyotning turli janrlarida ancha keng qo'llanadi va faol hodisa hisoblanadi. Bundan tashqari gapning uyushgan ikkinchi darajali bo'laklari birdan ortiq yo yig'iq, yoki yoyiq, yoxud ham yoyiq, ham yig'iq bo'laklardan tashkil topadi. Ular bir gap tarkibida bir yoki bir necha to'da holida kelishlari mumkin.

XULOSA

Adabiy tanqidchi Ozod Sharafiddinov uyushiq bo'laklarda ishlatiladigan bog'lovchilarning yakka holda qo'llanuvchi bog'lovchilar imkoniyatlaridan ham, takrorlanuvchi bog'lovchilarning ifoda imkoniyatlaridan ilmiy uslubga xos matn yaratishda unumli foydalangan. Ular ayniqsa, uyushiq bo'lakli gaplarning ta'sirchan, namunali bo'lishini ta'minlagan. Ilmiy matnni *ilmiy-ommabop* yoki *ilmiy-badiiy* matn tarzida shakllantirishga harakat qilgan. Uning asarlaridagi uyushiq bo'laklarini o'rganish davomida, adib uyushiq bo'laklarning bog'lovchili, bog'lovchisiz hamda ayiruvchi bog'lovchilardan unumli foydalangan. Ayniqsa, *va*, *ham*, *bilan* kabi bog'lovchilar keng qo'llanilgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. G'ulomov A., Asqarova M. Hozirgi O'zbek adabiy tili. — T.: Fan, 1966.
2. Karimov B. Chin ma'nodagi fidoyi. Ozod Sharafiddinov zamondoshlari xotirasida. — Toshkent, O'zbekiston, 2007.
3. Norsafarova N. Undalma, uyushiq va ajratilgan bo'laklar hamda kiritma qurilmaning gapdagi o'rni va ahamiyati. Journal of ethics and governance. Volume: 03, Issue: 04, ISSN: 2181-2616, 2023.
4. Oripov A. Yuksakka chorlovchi e'tiqod. Ozod Sharafiddinov zamondoshlari xotirasida. — Toshkent, O'zbekiston, 2007.
5. Hamrayeva H. Ozod Sharafiddinov publitsistikasining tili va uslubi. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya, avtoreferat. — Toshkent, 2012.
6. Hamrayeva H. Ozod Sharafiddinov publitsistikasining til xususiyatlari. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali. — Toshkent, 2010.
7. Shamsiddinov H. T. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya, avtoreferat.
8. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. — T.: Sharq, 2004.
9. Sharafiddinov O. Birinchi mo'jiza. — T.: Adabiyot va san'at, 1979.